
KENG KO'LAMDAGI YANGILANISHLAR MAHALLAMIZDA HAM AMALGA OSHIRILMOQDA

Qishloq hududlarining infratuzilmasini yaxshilash maqsadida Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar samarasini 1-sektor hududidagi "Mehnatobod" MFYda ham ko'rish mumkin. Ayni kunlarda ushbu mahallada elektr ta'minotini yaxshilash borasida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Yuz berayotgan bu o'zgarishlardan, keng ko'lamli bunyodkorlik ishlardan aholi mamnun bo'lmoqda. Hozir qishlog'imizda katta o'zgarishlar bo'lyapdi, - deydi "Mehnatobod" MFYda istiqomat qilayotgan Munisaxon aya Xojimurodova. - Yangi transformatorlar, yangi temir-beton tayanchlari o'rnatilib, mahallamiz obod bo'lmoqda. Natijada kelgusida elektr ta'minoti yaxshilanadi. Elektr energiyasi hamda ichimlik suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar uchun Prezidentimizga rahmat.

2023-07-29 10:20:25